

**TASDIQLAYMAN**  
Buxoro viloyati statistika  
boshqarmasi boshlig'i  
**U. Djumanazarov**  
2024- yil "5-yanvar"

**Buxoro viloyat statistika boshqarmasi va uning tizimida 2024-2025-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha  
CHORA-TADBIRLAR REJASI**

T/r	Chora-tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddatlari	Mas'ullar
<b>I. Aholining, shu jumladan statistika hisobotlarini topshiruvchi, statistika kuzatuvlarida ishtirok etuvchi subyektlarning huquqiy oigi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan munosabatni shakllantirish</b>				
1	O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni, korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olishga qaratilgan Davlat dasturlari va boshqa qonun hujjatlarining mazmun mohiyatini tushuntirishga bag'ishlangan tadbirlarni tashkili etish.	Aholi, tadbirkorlik subyektlari, jumladan statistika hisobotlarini topshiruvchi, statistika kuzatuvlarida ishtirok etuvchi subyektlar va tizim xodimlari ishtirokida davra suhbatlari, seminarlar, konferensiyalar, treninglar va boshqa tadbirlarni tashkili etish.	2024-2025-yil davomida (har chorakda kamida bittadan)	Sh. Yusupov, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha viloyat komissiya (keyingi o'rinlarda - viloyat komissiya), tuman (shahar) statistika
2	Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari mazmun-mohiyatini tushuntirishga, korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olishga qaratilgan kuruzamali va targatma materiallar (plakatlari, bannerlar, bukletlar va boshkalar)ni tayyorlash va targatish.	1. Ko'rgazmali materiallar (plakatlari, bannerlar, risolalar, bukletlar, infografikalar va boshkalar) ni tayyorlash. 2. Tayyorlangan materiallarni aholiga, tadbirkorlik subyektlari vakillariga, davlat statistika hisobotini topshiruvchi subyektlar vakillariga targatish.	Doimiy	Sh. Yusupov, O' Shodiyev, Viloyat komissiya, tuman (shahar) statistika bo'limlari

T/r	Chora-tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddatlari	Mas'ullar
3	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar va ularning natijalari buyicha ommaviy axborot vositalari va internet tarmog'ida keng axborot-tarq'ibot ishlarini olib borish.</p>	<p>3. Ommaviy axborot vositalari va internet tarmog'ida keng axborot-tarq'ibot ishlarini olib borishda viloyat teleradiokompaniyasi bilan yaqindan xamkorlik o'rnatish va ishlash.</p>	<p>2024-2025-yil davomida</p>	<p>Sh. Yusupov, Viloyat komissiya, tuman (shahar) statistika bo'limlari</p>
4	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida viloyat statistika organlari mansabdor shaxslari va xodimlarining huquqiy savodxonligi va huquqiy bilimlari oshirishga karatilgan kompleks tadbirlarni amalga oshirish.</p>	<p>4. Tizim rahbar va xodimlari tomonidan mansab vakolalarini suiste'mol qilishga yo'l qo'ymaslik, korrupsiya holatlarini oldini olish, amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga qar'iy rioya etilishini ta'minlash maqsadida, ularga normativ- huquqiy hujjatlarining mazmunini va ahamiyatini chuqur yetkazish bo'yicha seminar va davra suhbatlari tashkil etish.</p>	<p>2024-2025-yil davomida, har chorakda</p>	<p>Sh. Yusupov, O'. Shodiyev, Viloyat komissiya, tuman (shahar) statistika bo'limlari</p>
5	<p>Davlat statistika organlari xodimlarining odob-axloq qoidalariga rioya qilishlari, o'z kasbiga nisbatan mas'uliyat hissini oshirish, yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni bajarishda halollik, xolislik, begarazlik tamoyillariga rioya qilishlarini ta'minlashga hamda loqaydlik va boshqa salbiy holatlarga qat'iy chek qo'yish va ularning oldini olishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.</p>	<p>1. Xodimlar o'rtasida odob-axloq qoidalariga rioya qilinishi bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish. 5. Odob-axloq qoidalarini tushuntirishga, xodimlarning o'z kasbiga nisbatan mas'uliyat hissini oshirishga, halollik, xolislik, begarazlik tamoyillariga rioya qilish va salbiy holatlarga qar'iy chek qo'yish va ularning oldini olishga qaratilgan seminar, davra suhbatlari tashkil etish.</p>	<p>2024-2025-yil davomida</p>	<p>N. Yarashova, Odob-axloq komissiyasi, tuman (shahar) statistika bo'limlari</p>
6	<p>Alohida maqsadli guruhlarining (davlat xizmatchilari, tadbirkorlar, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari va boshqalar) korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmi va tizimi haqida huquqiy bilimi va xabardorligini oshirish yuzasidan ahamiyatga ega bo'lgan amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish.</p>	<p>Davlat organlari faoliyatining xususiyatlarini inobatga olgan holda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va hal qilish borasida amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish. 2. Korrupsiyaga qarshi kurashish va kasbiy odob-axloq qoidalariga rioya etish masalalari bo'yicha maxsus materiallar (buklet, banner, plakatlar)ni yaratish va tarqatish.</p>	<p>2024-2025-yil oktyabr - noyabr oylarida</p>	<p>Sh. Yusupov, O'. Shodiyev, Viloyat komissiya, N. Yarashova, tuman (shahar) statistika bo'limlari</p>
7	<p>Boshqarmaning veb-saytlarida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha viloyat komissiyalarining faoliyati ochiqdligini ta'minlash maqsadida ularning sahifalarini ochish va ularning samarali ishlashini ta'minlash.</p>	<p>Viloyat komissiyalar sahifalarining samarali faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida quyidagilarni e'lon qilib borish: - korrupsiyaga qarshi tadbirlar haqida hisobot va ma'lumotlar; - korrupsiyaning tarqalishi va idrok etilishi haqida jimoiy va ilmiy tadqiqotlar natijalari; - ma'lumot, metodik va axborot materiallari; korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan</p>	<p>2024-2025-yil davomida</p>	<p>Sh. Yusupov, N. Baxshilloev, Viloyat komissiya, tuman (shahar) statistika bo'limlari</p>

T/r	Chora-tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	muddatlari	Mas'ullar
8	Boshqarmaning veb-saytlarida Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha viloyat komissiyalarning faoliyati ochiqligini ta'minlash maqsadida ularning sahifalarini ochish va ularning samarali ishlashini ta'minlash.	Viloyat komissiyalar sahifalarining samarali faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida quyidagilarni e'lon kilib borish: - korruptsiyaga qarshi tadbirlar haqida hisobot va ma'lumotlar; - korruptsiyaning tarqalishi va idrok etilishi haqida ijtimoiy va ilmiy tadqiqotlar natijalari; - ma'lumot, metodik va axborot materiallari; korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni muxokama qilish uchun jamoatchilik bilan kayta aloka mexanizmlari xamda jamoatchilik fikrini urganish natijalari.	2024-2025-yil davomida	Sh. Yusupov, N. Baxshilloev, Viloyat komissiya, tuman (shahar) statistika bo'limlari
9	Korruptsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish sohasida davlat statistika organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan ijtimoiy sheriklikni yanada mustahkamlash.	Nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan kelishuvlar va shartnomalar tuzish, hamda ular doirasida o'zaro sheriklik imkoniyatlaridan keng foydalanish.	2024-2025-yil davomida	Sh. Yusupov, Viloyat komissiya, tuman (shahar) statistika bo'limlari
<b>II. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korruptsiyaning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar</b>				
10	O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi Qonuni talablarining ijrosi holatini o'rganish, statistika organlari faoliyatining ochiqligini monitoring qilish va baholash.	Qonun talablaridan kelib chiqqan holda statistika organlarining faoliyati ochiqligi va shaffofligini har olti oyda bir marta monitoring qilish va baholash.	2024-yil noyabr 2025-yil may	Sh. Yusupov, Axborot xizmati, Viloyat komissiya, tuman (shahar) statistika bo'limlari
11	Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida viloyat statistika boshqarmasida yangi ishga qabul xodimlarining hukukiy savodxonligi va huquqiy bilimlarini oshirishga qaratilgan kompleks tadbirlarni amalga oshirish.	Yangi ishga qabul qilingan xodimlarga umumiy va individual tarzda odob-axloq qoidalarini tushuntirish, xodimlarning o'z kasbiga nisbatan mas'uliyat hissini oshirishga, halollik, xolislik, begarazlik tamoyillariga rioya qilish va salbiy holatlarga qarshi yechim qo'yish va ularning oldini olishga qaratilgan o'quv-seminar mashg'ulotlari, davra suhbatlari o'tkazish.	Doimiy	Boshqarma rahbariyati, O. Shodiyev, N. Yarashova, Odob-axloq komissiyasi, tuman (shahar) statistika bo'limlari

<p>12</p> <p>O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi va korrupsiyaga qarshi kurashish viloyat kengashi tomonidan o'tkaziladigan seminarlarda qatnashish, ular tomonidan yuboriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi me'yoriy huquqiy hujjatlar va topshiriqlarni ijrosini ta'minlash</p>	<p>Tasdiqlangan rejaga asosan qabul qilingan me'yoriy huquqiy hujjatlar va topshiriqlarni mazmun mohiyatini o'rganish maqsadida o'quv-seminar mashg'ulotlari o'tkazib xodimlari e'tiboriga yetkazish, o'rnatilgan tartibda ijrosini ta'minlash va o'z vaqtida axborot berish.</p>	<p>Doimiy</p>	<p>Boshqarma rahbariyati va O'. Shodiyev</p>
<p>13</p> <p>viloyat statistika boshqarmasida Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish hamda jismoniy va yuridik shaxslarga qulayliklar yaratish maqsadida hamda "9-dekabr - Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni"ga bag'ishlangan "Ochiq eshiklar kuni"nda, ochiq eshiklar kuni belgilab murojaatlarni qabul qilib belgilangan muddatida qonuniy hal qilish.</p>	<p>viloyat statistika boshqarmasi binosining kirish qismida "9-dekabr - Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni"ga bag'ishlangan "Ochiq eshiklar kuni"ni munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish maqsadida alohida qabul qilish xonasi tashkil qilish, qabul qilish xonasini telefon, huquqiy adabiyotlar va boshqa barcha zaruriy jihozlar bilan ta'minlab doimiy qabul qilishni ta'minlash lozim.</p>	<p>Yilning noyabr oyi to'liq va dekabr oynining birinchi o'n kunligida</p>	<p>Boshqarma rahbariyati, A.Po'tolov va O'. Shodiyev</p>
<p>14</p> <p>2017-yil 3-yanvar kuni 419-sonli O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni va boshqa me'yori hujjatlarni mazmun mohiyatini tushuntirish xodimlarning huquqiy bilimlarni oshirishga bag'ishlangan o'quv-seminar mashg'ulotlari, davra suhbatlari tadbirlarini samaradorligini oshirish maqsadida viloyat huquq targ'ibot idoralaridan mutaxassislarni taklif etib tadbirlarni o'tkazish.</p>	<p>Viloyat adliya boshqarmasidan, viloyat IIB korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlariga qarshi kurash bo'limidan va boshqa huquq targ'ibot idoralaridan mutaxassislarni taklif qilib ommaviy axborot vositalari va internet tarmog'ida keng axborot-targ'ibot ishlarini tashkilotlashtirib o'quv-seminar mashg'ulotlarni o'tkazish.</p>	<p>Har chorakda</p>	<p>Boshqarma rahbariyati, N.Baxshilloev va O'. Shodiyev</p>
<p>15</p> <p>Xodimlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha, shu jumladan ilg'or ilmiy-texnik vositalarni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish yo'li bilan idoraviy nazorat mexanizmlarini takomillashtirish.</p>	<p>Statistika boshqarmasi xodimlari o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha idoraviy nazoratni tashkil etish tartibini yanada takomillashtirish. Jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan har qanday murojaatlar o'z vaqtida tekshirilib huquqiy baho bergan holda qonuniy hal qilib holatini web-sayt orqali kuzatish tizimini yo'lga qo'yish.</p>	<p>2024-2025-yillar davomida</p>	<p>Boshqarma rahbariyati, A.Po'tolov va O'. Shodiyev</p>

<p><b>16</b></p> <p>Viloyat statistika boshqarmasi, shahar va tuman statistika bo'limlari bilan jamoatchilik o'rtasidagi munosabatlar sifatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, ishonch telefonlari ish samaradorligini yanada oshirish, kelib tushgan murojaatlarni qonuniy hal qilinishini ta'minlash.</p>	<p>Statistika boshqarmasi va jamoatchilik o'rtasidagi munosabatlar sifatini yaxshilash, viloyat statistika boshqarmasi ishonch telefonlari faoliyati samaradorligini oshirish va uzluksiz faoliyat yuritishini ta'minlash hamda kelib tushayotgan murojaatlarni ko'rib chiqish, tahlil qilish, statistikasini yuritgan holda o'z vaqtida qonuniy hal qilish.</p>	<p>2024-2025 yillar davomida</p>	<p>Boshqarma rahbariyati, A.Po'lorov va barcha bo'lim boshliqlari</p>
<p><b>17</b></p> <p>Davlat xizmatlarini ko'rsatishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga, interaktiv davlat xizmatlarining ko'lamini yanada kengaytirishga va joriy qilishga hamda elektron hukumat to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqdastirishga qaratilgan o'rganishni tashkillashirib va takliflar tayyorlash.</p>	<p>Statistika sohasida davlat xizmatlarini ko'rsatishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashirish, interaktiv davlat xizmatlarining ko'lamini yanada kengaytirish va joriy etish hamda elektron hukumat to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqdastirish bo'yicha takliflar tayyorlash.</p>	<p>2024-yil fevral</p>	<p>Sh. Yusupov, I. Islomov N. Fuzaylova</p>

**Nazorat rejami tuzdi**



**O. Shodiyev**